



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI MILLIY STATISTIKA QO'MITASI

2026- yil "30" yanvar

QAROR 3 -son

Toshkent sh.

Ishlab chiqaruvchilarning sanoat mahsulotlari narxlari indekslarini hisoblash bo'yicha uslubiy nizomga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida

O'zbekiston Respublikasining "Rasmiy statistika to'g'risida"gi Qonuni hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 24-fevraldagi "O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida" PQ-75-son qaroriga muvofiq, statistika kuzatuvlarini o'tkazish va ko'rsatkichlarni shakllantirish uslubiyotlarini xalqaro standartlarga muvofiqlashtirish hamda raqamli texnologiyalarni joriy etish orqali yanada takomillashtirish maqsadida, Milliy statistika qo'mitasi **qaror qiladi**:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligining 2024-yil 20-noyabrdagi 196-sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan "Ishlab chiqaruvchilarning sanoat mahsulotlari narxlari indeksini hisoblash bo'yicha uslubiy nizom"ga ilovaga muvofiq o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilsin.

2. Mazkur qaror tasdiqlagan kundan e'tiboran kuchga kiradi.

Rais

B. Hamrayev

**Ishlab chiqaruvchilarning sanoat mahsulotlari narxlari indekslarini hisoblash
bo'yicha uslubiy nizomga kiritilayotgan o'zgartirish va qo'shimchalar**

1. Muqaddimaning birinchi xatboshi quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“Ishlab chiqaruvchilarning sanoat mahsulotlari narxlari indekslarini hisoblash bo'yicha uslubiy nizom (keyingi o'rinlarda – Uslubiy nizom) “Statistik ma'lumotlarni ishlab chiqish jarayonlarining namunaviy modeli” (Generic Statistical Business Process Model (keyingi o'rinlarda – GSBPM)) va “Statistik ma'lumotlarni taqdim etishning universal modeli” (Generic Statistical Information Model (keyingi o'rinlarda – GSIM)) talablari asosida ishlab chiqilgan.”.

2. 6, 79 va 80-bandlardagi “O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi” degan so'zlar “O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi” degan so'z bilan almashtirilsin.

3. 2- bobning 6-bandi quyidagi mazmundagi uchinchi xatboshi bilan to'ldirilsin:

“Bundan tashqari, narxlar to'g'risidagi ma'lumotlarning muqobil manbasi sifatida soliq organlarining ma'lumotlar bazasidagi elektron hisob-fakturalarda mavjud bo'lgan ma'lumotlardan foydalaniladi. Ushbu manba, agar u tovar (xizmat) xususiyatlari haqidagi ma'lumotlarni o'z ichiga olsa va narxlarning vaqt o'tishi bilan taqqoslanishini ta'minlash imkonini bersa, qo'llanilishi mumkin. Elektron hisob-fakturalardagi ma'lumotlarni qo'llashning muhim sharti narxdan QQS va aksiz solig'ini chiqarib tashlash imkoniyatining mavjudligidir”.

4. 58-bandning “v” kichik bandi chiqarib tashlansin.

5. 67-bandda “Laspeyres formulasi” so'zlari “arifmetik Yang formulasi” so'zlari bilan almashtirilsin.